

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI  
SUD TIBBIYOTI KAFEDRASI



SUD TIBBIYOTI VA VRACN FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

fani modul ishchi dasturi

**Bilim sohasi:** 900 000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

**Ta'lim sohasi:** 910000 -Sog'liqni saqlash

**Ta'lim yo'nalishlari :** 60910200 -Davolash ishi (4 -kurs )

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan QS reytingida birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi Harvard University (# = 1 QS World University Rankings) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.  
<https://hms.harvard.edu/>

Buxoro – 2025 yil

Ushbu modulning ishchi dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim ,fan va innovatsiyalar vazirining 2023 -yil "9"iyun 259-son buyrug'i ilovalaridan foydalangan holda va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2019 yil 12 .08.209-sonli buyrug'ining 4.2 ilovasi asosida kafedra professor o'qituvchilar tomonidan tayyorlandi.

**Tuzuvchi :**

Xatamova S.M - BDTI Sud tibbiyoti kafedrasida assistenti

Saidov A.A- BDTI Sud tibbiyoti kafedrasida assistenti

Xaydarova N.R- BDTI Sud tibbiyoti kafedrasida assistenti

**Taqrizchilar :**

Ochilov K.R – BDTI Sud tibbiyoti kafedrasida , professori

Soibov H.M – Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Buxoro filiali boshlig'i , Phd

Kafedrada o'tiladigan fanlarning o'quv-uslubiy hujjatlari kafedra yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi .

Bayonnoma № 1 “ ” “ ” 2025 yil

Kafedra mudiri :



Ochilov K.R

Barcha yo'nalishlarda o'tiladigan fanlarning o'quv- uslubiy hujjatlari institut Ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

Bayonnoma № “ ” “ “ 2025 yil

Ofis registrator boshqarma boshlig'i :



O.B.Raxmatov

Ta'lim jarayonlarni muvofiqlashtirish

sektori bosh mutaxassisi :



Adilova R.H

## **1.O‘quv modulining dolzarbligi va oliy ta’limdagi o‘rni**

Ushbu modul dasturi “**Sud tibbiyoti**” O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda, talabani nazariy bilimlardan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalarni bajarishga o‘rgatib va ortirilgan ko‘nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llashga imqon yaratadi.

“Sud tibbiyoti” moduli klinik modullar blokiga taalluqli bo‘lib, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining davolash ishi, kasbiy ta’lim yo‘nalishlarida 4-kursda o‘qitiladi. Mazkur modul barcha tibbiy-biologik va klinik modullarga asoslangan holda, o‘zining rivojida huquqni muhofaza etuvchi idoralarning faoliyatida vujudga kelgan tibbiy-biologik masalalarni yechimi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

## **2. O‘quv modulining maqsadi va vazifalari**

**2.1. Modulni maqsadi** – talabalarga bo‘lajak shifokorlik faoliyatida zarur bo‘lgan sud tibbiyoti bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘rgatish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun modul talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, huquqga oid tibbiy-biologik kelib chiqishga ega hodisa va jarayonlarga ilmiy-uslubiy yondashuvni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

### **2.2. Modulning vazifalari:**

- talabalarni sud-tibbiy xizmatning prosessual va tashkiliy asoslari bilan tanishtirish;
- talabalarga, murdani voqea sodir bo‘lgan joyda ko‘zdan kechirishda sud tibbiyoti sohasidagi mutaxassisning faoliyati, o‘lim yuz berganligini va vaqtini aniqlash usullari, kiyimdagi va tanadagi jarohatlarni tavsiflashni ko‘rsatish;
- talabalarga, turli sabablardan vafot etgan shaxslar murdasini sud-tibbiy tekshirish usullari va ekspert xulosasini tuzishni o‘rgatish;
- talabalarni, o‘tkir va o‘tmas jismlar, hamda o‘q otar quroldan yetkazilgan jarohatlarni sud-tibbiy tekshirish usullari bilan tanishtirish;
- talabalarni, tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasi, shuningdek tan jarohatlarining og‘irlik darajasini baholash, ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomasini va ekspert xulosasini tuzishning asosiy prinsiplari bilan tanishtirish;
- talabalarga, daliliy ashyolarni yig‘ish, o‘rash, laboratoriyalarga yuborish usullarini o‘rgatish; talabalarni, tibbiy hujjatlar va dastlabki sud-tergov materiallari bo‘yicha ekspertiza o‘tkazish bilan tanishtirish;

### **2.3. Modul bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar:**

#### **8-semestr yakunida:**

##### **Talaba:**

- o‘limning yuz berganligini aniqlash, tergovchi tomonidan tuziladigan dalolatnomada murda holatini va undagi kiyim, murda o‘zgarishlari, jarohatlarni tavsiflash bilan tashqi ko‘rik ma’lumotlarini qayd etish, o‘lim muddatini aniqlash;
- hodisa sodir bo‘lgan joyda biologik ashyoviy dalillarni topish, yig‘ish va o‘rashda tergovchiga yordam berish;

- murdalar sud-tibbiy tekshiruvini o'tkazish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'lim haqida vrach guvohnomasini tuzish;
- tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish, ekspert xulosasi va dalolatnomasini tuzish, jumladan tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash;
- to'satdan o'lim, mexanik jarohatlar, zaharlanishlar va boshqa sud-tibbiy ekspertiza ma'lumotlaridan ushbu noxush holatlarning profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazish;
- murda va tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasida laborator tekshiruvlarga material olish va ushbu tekshiruvlar natijalarini baholash;
- tibbiy xodimlarning kasb huquqbuzarliklari holatlarida o'tkazilgan ekspertiza materiallari bo'yicha aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazish haqida **tassavurga ega bo'lishi**;
- murdani tekshirish usullari;
- laboratoriya tekshiruvlari uchun murdadan material olish usullari;
- sud tibbiy tashxis tuzish;
- ekspert xulosasi to'xtamlarini tuzish;
- tirik shaxslar ekspertizasini o'tkazish usullari, xulosa va dalolatnoma tuzish;
- tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash;
- sud-tergov materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazish va xulosa tuzish **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- voqea joyini ko'zdan kechirish;
- murdani topilgan joyida ko'zdan kechirish;
- o'lim yuz berganligini aniqlashning asosiy usullari;
- o'lim muddatini aniqlash;
- murda kiyimlarini ko'zdan kechirish va tavsiflash;
- ilk va kechki murda o'zgarishlari va jarohatlarini tavsiflash;
- tirik shaxslar ekspertizasini o'tkazish usullari, xulosa va dalolatnoma tuzish;
- tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash;
- sud-tergov materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazish va xulosa tuzish kabi **malakalarga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.**

	Kredit	Auditoriy soati	Ma'ruza	Amaliyot	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama (soat)
Davolash 4-kurs	4	60	16	44	60	120

## II. Asosiy nazariy qism

### (ma'ruza mashg'ulotlari)

t/n	Ma'ruza mavzusi	Soati	Egallashi shart bo'lgan kompetensiyal kodi
1	Sud-tibbiy tanatologiya.	2	UK1 UK2
2	Mexanik jarohatlar tushunchasi va ularning sud tibbiy ahamiyati	2	UK11
3	Kislород tanqisligi natijasida	2	UK2

	organizmning jarohatlanishi va o'lim.		
4	Fizik omillar ta'siridan o'lim hollarida murdalar sud-tibbiy ekspertizasi	2	UK1 UK2
5	Yangi tug'ilgan chaqaloqlar murdasini sud-tibbiy ekspertizasi.	2	UK11
6	Sud tibbiy toksikologiya.	2	UK2
7	Tirik shaxslarning sud-tibbiy ekspertizasi. Tirik shaxslar ekspertizalarining tashkiliy va prosessual xususiyatlari	2	UK1 UK2
8	Ashyoviy dalillarni sud-tibbiy tekshirish. Ashyoviy dalillar tushunchasi.	2	UK11
	<b>Jami :</b>	<b>16 soat</b>	

### Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

#### 1-mavzu. Sud-tibbiy tanatologiya.

<https://harvard.simplesyllabus.com/en-US/doc/djd3g6go4>

O'lish va o'lim. O'limning sud-tibbiy tasnifi. Tanatologiyaning reanimatologiya, transplantologiya bilan aloqasi. Terminal holat. Klinik va biologik o'lim. O'lim yuz berganligini aniqlash. Postvital reaksiyalar. Murdaning ilk va kech o'zgarishlari. O'lim muddatini aniqlash. Murda sud-tibbiy ekspertizasining maqsadi. Sud-tibbiy ekspertizaga molik o'lim holatlari. Qo'shimcha tekshirishlarga ob'yektlar olish. O'limning uzoq, oraliq, yaqin sabablari. O'lim sabablarining raqobati. Murda sud-tibbiy ekspertizasini hujjatlashtirish. Evtanaziya. Noma'lum shaxslar, bo'laklangan va skeletlangan murdalarni tekshirish xususiyatlari. Eksgumatsiya qilingan murdalarni tekshirish xususiyatlari. Jarohatlarning hayotiyligi va yetkazilgan vaqtini aniqlash. Murda sud-tibbiy ekspertizasining pataloganatomik tekshiruvdan farqlari. Shaxsning sud-tibbiy identifikatsiyasi.

#### 2-mavzu. Sud-tibbiy travmatologiya.

<https://harvard.simplesyllabus.com/en-US/doc/djd3g6go4>

Tan jarohati tushunchasi va tasnifi. Travmatizm va uning turlari. Jarohatlarning hayotiyligini aniqlash. Sud tibbiyoti amaliyotida jarohatlarni tekshirish usullari. Mexanik jarohatlar. Mexanik jarohatlardan o'lim sabablari. O'tmas jismlardan jarohatlanish. O'tmas jismlarning turlari, ta'sir mexanizmi va yetkazilgan jarohatlar xarakteri. Balandlikdan haqida natijasidagi travma. O'tkir jismlar ta'siridan jarohatlanish. Kesuvchi, chopuvchi, sanchuvchi, kesuvchi-sanchuvchi va arralovchi jismlardan jarohatlanish. Transport travmasi tushunchasi, turlari. Avtomobil travmasi tushunchasi va tasnifi. Avtomobil travmasida spesifik, xos, xos bo'lmagan va imitatsiyalovchi jarohatlar. Harakatlanayotgan avtomobil to'qnashishi natijasidagi jarohatlar. Bumper-jarohatlarning morfologik xususiyatlari. Avtomobil g'ildiragi bosib o'tishi natijasidagi jarohatlar. Protektor izi suratining ahamiyati. Harakatdagi avtomobildan tushib ketish natijasida jarohatlanish. Avtomobil salonida jarohatlanish. Avtomobil va boshqa jism orasida tananing siqilish natijasida jarohatlanish. Motosikl, traktor va temir yul travmalari, ularning turlari. Aviasion travma. Transport travmasi holatlarida kiyim, poyafzalni tekshirishning ahamiyati. O'q otar qurollar va ularning turlari. Qurol-yarog'lar. O'q otishning shikastlovchi omillari. O'q otish masofasi va distansiyasi tushunchasi. Taqab otish. Yaqin distansiyadan o'q otishdan jarohatlanish. Yaqin distansiyadan o'q otish zonalari. Yaqin bo'lmagan distansiyadan o'q otishdan jarohatlanish. O'q otish snaryadining kiyimlarga, to'qimalarga va a'zolarga ta'siri. O'q otar jarohatining kirish va chiqish teshiklarini aniqlash. Yara kanali. Qo'l bola va atipik o'q otar qurollardan shikastlanish. Gazli, pnevmatik va maxsus o'q otar qurollardan shikastlanish. Jarohat xususiyatlariga

qarab qurol turini aniqlash imkoniyatlari. O'q otar jarohatlar sud-tibbiy ekspertizasining xususiyatlari. Portlash travmasi. Portlashning shikastlovchi omillari.

### **3-mavzu- Fizik omillar ta'siridan o'lim hollarida murdalar sud-tibbiy ekspertizasi**

Yuqori va past xaroratning ta'siri. Alanga ta'sirining xayotiyiligini aniqlash. Texnik va atmosfera elektr tokining ta'siri. Yuqori va past bosimning ta'siri.

### **4-mavzu. Kislorod tanqisligi natijasida organizmning jarohatlanishi va o'lim.**

Gipoksiya va asfiksiya tushunchalari. Gipoksiya turlari. Mexanik asfiksiya tasnifi. Asfiksiyaning hayotiy kechishi. Postasfiktik holatlar. Umumasfiktik belgilar. Strangulyasion asfiksiya: osilish, sirtmoq bilan bo'g'ish, qo'l bilan bo'g'ish. Strangulyasion egatning hayotiylik belgilari. Obturasion asfiksiya: og'iz va burunning berkilishi, nafas yo'llarining yot jismlar, sochiluvchi moddalar bilan berkilishi. Cho'kish tushunchasi va turlari. Asfiktik va chin cho'kish diagnostikasi. Cho'kishning hayotiyiligini aniqlashda laboratoriya tekshiruvlarining ahamiyati. Murdaning suvda bo'lish belgilari. Cho'kish holatlarida murda sud-tibbiy ekspertizasining xususiyatlari. Kompression asfiksiya: ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'ining siqilishi. Chegaralangan yopiq bo'shliqdagi asfiksiya.

**5-mavzu.** Yangi tug'ilgan chaqaloqlar murdasini va homilani sud-tibbiy tekshirish. Yangi tug'ilganlik tushunchasi. Yangi tug'ilganlik belgilari. Tirik tug'ilganlikni aniqlash. Gestasion yoshni (rasolik, yetuklik) aniqlash usullari. Hayotga layoqatlikni ko'rsatuvchi belgilar. Tug'ilgandan keyingi yashash muddati, parvarish belgilarini aniqlash. Tug'ruqqacha, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrlarda o'lim sabablari. Homila va chaqaloqlar murdasi sud-tibbiy ekspertizasining xususiyatlari. Go'dak o'ldirish.

### **6- mavzu. Sud-tibbiy toksikologiya.**

<https://harvard.simplesyllabus.com/en-US/doc/djd3g6go4>

Zahar va zaharlanish tushunchasi. Zaharlarning ta'sir etish shart-sharoitlari. Toksikokinetika va toksikodinamika. Zaharlarning sud-tibbiy tasnifi. Alkogol va uning surrogatlari bilan zaharlanish. Giyohvand va gangituvchi moddalar bilan zaharlanish. Zaharlanish holatlarida qo'shimcha laboratoriya tekshiruvlari. Zaharlanish hollarida sud-tibbiy ekspertizaning tibbiy va ijtimoiy ahamiyati.

### **7- mavzu. Tirik shaxslarning sud-tibbiy ekspertizasi.**

Tirik shaxslar ekspertizalarining tashkiliy va prosessual xususiyatlari. Jinsiy holat va jinoyatlar bo'yicha tirik shaxslarning sud-tibbiy ekspertizasi. Gender zurlash xamda seksual zurlash bilan bog'liq bulgan jaroxatlanishni nazorat kilish va oldini olish choralari.

### **8-mavzu. Ashyoviy dalillarni sud-tibbiy tekshirish.**

Ashyoviy dalillar tushunchasi. Qonni tekshirish (qon mavjudligini, qon guruhini, tur mansubligini izoserologik sistemalar bo'yicha aniqlash, genom identifikatsiyasi, jinsni aniqlash). Maniy, so'lak, ter, siydik va odam organizmining boshqa ajralmalarini sud-tibbiy tekshirish. Soch, suyak va boshqa to'qimalarni tekshirish. Sud-tibbiy ekspertiza ob'yektlarini sitologik tekshirish. Sud-gistologik, tibbiy-kriminalistika va sud kimyo tekshiruvlarning xususiyatlari (vazifalari, ob'yektlari, usullari).

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

t/n	Mavzu nomi	Soati	Egalashi shart bo'lgan kompetensiyalar kodi	O'quv-uslubiy ta'minot
1	Sud tibbiyoti fanining tarixi va rivojlanishi. Voqea joyini ko'zdan kechirish.	4	UK2 KK2	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, video roliklar, videofilmlar
2	Sud tibbiy tanatologiya O'lim haqida ta'limot va tanatologiya asoslari.	4	UK2 KK2	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, rangli rasmlar, tablitsalar, video roliklar, videofilmlar
3	Yangi tug'ilgan chaqalok (go'dak) yoki homila murdasini tekshirish. Murda sud-tibbiy ekspertizasi.	4	UK1 KK5	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, rangli rasmlar, tablitsalar, video roliklar, videofilmlar
4	Mexanik jarohatlar. O'tkir va o'tmas jismlardan etkazilgan jarohatlar. Mexanik jarohatlarda o'lim sabablari.	4	UK2 KK2	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, rangli rasmlar, tablitsalar, video roliklar, videofilmlar
5	Transport travmasi. Transport vositalaridan etkazilgan jarohatlarning turlari.	4	UK1 KK5	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, rangli rasmlar, tablitsalar, video roliklar, videofilmlar
6	Mexanik asfiksiya, asfiksiyaning umumiy tashqi va ichki belgilarini aniqlash..	4	UK2 KK2	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, rangli rasmlar, tablitsalar, video roliklar, videofilmlar
7	Sud tibbiy toksikologiya. Zaharlarning organizmga ta'sir etish sharoitlari.	4	UK1 KK5	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia
8	Fizik omillar ta'siridan o'lim hollarida murdalar sud-tibbiy ekspertizasi	4	UK1 KK2	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, videofilmlar
9	Tirik shaxslar ekspertizasini o'tkazish: voqea tafsiloti bilan tanishish; tibbiy hujjatlarni o'rganish;	6	UK2 KK2	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, videofilmlar

	ko'rikdan o'tuvchini so'roq qilish.ekspert xulosasini tuzish.			
10	Jinsiy holat va jinsiy jinoyatlarda tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasi.	6	UK1 KK5	O'quv-uslubiy majmua, Mavzuga doir multimedia, videofilmlar
	<b>Jami :</b>	<b>44</b>		

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovasion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

### **3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:**

Modul davomida talabalar sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari moduli bo'yicha ilk va kechki murda o'zgarishlari va jarohatlarini tavsiflash, tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash, sud-tergov materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazish va xulosa tuzish, tibbiy yordam ko'rsatishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qila olish; tibbiy xodimlarning kasb huquqbuzarligi bo'yicha tayinlangan komission ekspertizalarda ekspert yoki mutaxassis sifatida ishtirok etish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati: Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:**

#### **8-semestr:**

1. voqea joyini ko'zdan kechirish;
2. murdani topilgan joyida ko'zdan kechirish;
3. o'lim yuz berganligini aniqlashning asosiy usullari;
4. o'lim muddatini aniqlash;
5. murda kiyimlarini ko'zdan kechirish va tavsiflash;
6. ilk va kechki murda o'zgarishlari va jarohatlarini tavsiflash;
7. tirik shaxslar ekspertizasini o'tkazish usullari, xulosa va dalolatnoma tuzish;
8. tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash;
9. sud-tergov materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazish va xulosa tuzish.

### **Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:**

- UK11. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- UK2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
- UK3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
- UK4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UKK 12. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

KK 2. Kasallikni aniqlash uchun bemorlarning shikoyatlarini, anamnezidan olingan ma'lumotlarni, tekshiruv natijalarini, laboratoriya, instrumental, patologik-anatomik va boshqa tadqiqotlarni yig‘ish va tahlil qilishga tayyorligi.

KK5. Xavf omillarini bartaraf etish va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish uchun tayyorligi

KK 6. Dalillarga asoslangan tibbiyot asosida axborotni tahlil qilish va ommaviy ravishda namoyish etishga tayyorligi

KK 7. Ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish qobiliyati

***Modul davomida o‘quv klinik amaliyotni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:***

Talabalarining “Sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari” moduli bo‘yicha klinik amaliyoti ta’lim jarayonining 50%ini tashkil qiladi va amaliy mashg‘ulotlar “Sud-tibbiy ekspertiza markazlari” bo‘limlarida o‘tkaziladi.

Amaliy mashg‘ulotda amaliy ko‘nikmalarga o‘rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg‘ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o‘rganilayotgan amaliy ko‘nikmani o‘rganish motivasion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Amaliy ko‘nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo‘lishi lozim.

2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko‘nikmani namoyish qilib berish va ko‘p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko‘nikmalarni qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoish etiladi, algoritm asosida bosqichma bosqich to‘g‘ri bajarishga alohida e‘tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko‘nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o‘zaro bir-birida ko‘p marta mashq qilib o‘rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keng umumlashtirgan holda to‘liq va to‘g‘ri bajara olgandan so‘ng ko‘nikmalarni qo‘llashga ruhsat beriladi (imitasion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko‘nikmalar qadamma qadam algoritmi va videofilmi, o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo‘lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo‘lganda talabalar ishidagi xatoliklarni bartaraf etadi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o‘ziga namoish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o‘qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so‘ngra muolajani takrorlaydi. 13

Interfaollik shunda namoyon bo‘ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o‘qitilayotgan talabaning amaliy ko‘nikmani to‘g‘ri o‘zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko‘nikma aftomatizm darsigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani amalda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar to'plami, keyslar, sud tibbiy ekspertiza xulosalari, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi ekspertiza xulosalari va dalolatnomalar va x.q. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladi, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki jamoada faoliyat ko'rsatishda ishtirok etadilar.

4. To'rtinchi bosqich – hulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmalarini turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirilgan deb hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba ekspertiza ob'yektlari bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, sud tibbiy ekspertiza xulosalarini yozib himoya qilganda baholanadi.

Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

t/n	Mustaqil ta'lim mavzulari	Soati	Mustaqil ish shakllari
1	O'zbekistonda sud tibbiyotining tarixi. Sud-tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me'yoriy xujjatlar	6	prezentatsiya va referat
2	O'lim vaqtini aniqlash.	6	prezentatsiya va videoroliklar
3	Murda a'zo va to'qimalarning transplantatsiya maqsadida qo'llanilishi. Reanimatsiya va transplantatsiyaning huquqiy, ma'naviy va tibbiy jihatlari.	6	prezentatsiya va referat
4	Yangi tug'ilganlik tushunchasi (akusherlik, pediatriya, sud-tibbiy). Prye-, intra- va postnatal davrlarda go'daklar o'limining xususiyatlari.	6	prezentatsiya va videoroliklar referat
5	Asfiksiyaning turli variantlarida o'limning vujudga kelish mexanizmi.	6	prezentatsiya va referat
6	Jarohatning hayotlik vaqtida yetkazilganligini aniqlash.	6	prezentatsiya va referat
7	Yuqori va past haroratdan yetkazilgan jarohatning tiriklikda yetkazilganligini, jarohat maydonini aniqlash.	6	prezentatsiya va referat
8	Turli dori moddalari bilan zaharlanish.	6	prezentatsiya va referat
9	Favqulodda holatlarda sud-tibbiy	6	prezentatsiya va

	ekspertiza o'tkazish xususiyatlari		referat
10	Evtanaziya turlari.	6	prezentatsiya va referat
	<b>Jami :</b>	<b>60</b>	

#### 4.1. Tavsia etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

##### 8-semestr:

1. O'zbekistonda sud tibbiyotining tarixi.
2. Sud-tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me'yoriy hujjatlar.
3. Miya o'limining diagnostikasi.
4. O'lim vaqtini aniqlash.
5. Evtanaziya turlari.
6. Murda a'zo va to'qimalarning transplantatsiya maqsadida qo'llanilishi. Reanimatsiya va transplantatsiyaning huquqiy, ma'naviy va tibbiy jihatlari.
7. Yangi tug'ilganlik tushunchasi (akusherlik, pediatriya, sud-tibbiy). Prye-, intra- va postnatal davrlarda go'daklar o'limining xususiyatlari.
8. Asfiksiyaning turli variantlarida o'limning vujudga kelish mexanizmi.
9. Asfiksiyaning hayotlik vaqtida sodir bo'lganligini aniqlash va ularning morfologik belgilari.
10. Yopiq muhitdagi asfiksiya.
11. Pozision asfiksiya
12. Cho'kishda laboratoriya tekshiruv usullari.
13. Suvdan chiqarib olingan murdadagi jarohatlarning differensial diagnostikasi.
14. Mexanik omillarning ta'sir etish sharoitlari.
15. Kesma, sanchma, kesma-sanchma va chopma jarohatlarning morfologik xususiyatlari.
16. Jarohatning hayotlik vaqtida yetkazilganligini aniqlash.
17. O'q otar quroldan jarohatlanish mexanizmi.
18. To'siq orqali va deformatsiyalangan o'qlar bilan jarohatlanish xususiyatlari.
19. Pozision siqilish sindromining sud-tibbiy diagnostikasi.
20. Favqulodda holatlarda sud-tibbiy ekspertiza o'tkazish xususiyatlari.
21. Yuqori va past haroratdan yetkazilgan jarohatning tiriklikda yetkazilganligini, jarohat maydonini aniqlash.
22. Zaharli ximikatlar tushunchasi.
23. Etil spirti va uning surrogatlari bilan zaharlanish.
24. Opiatlar bilan zaharlanish.
25. Nasha preparatlari bilan zaharlanish.
26. Turli dori moddalari bilan zaharlanish.
27. FOB bilan zaharlanishning xususiyatlari.
28. O'limga olib kelgan zaharlanishlar xarakteristikasi

#### 4.2. Tavsia etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari moduli bo'yicha tavsia etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- Sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari modulining bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma‘ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma‘ruza tezislarini tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to‘ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo‘llash va h.k.

#### **4.3. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:**

Sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari moduli bo‘yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- markazlar bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suxbat va ma‘ruzalarni o‘tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayarlash;
- berilgan mavzu bo‘yicha prezentatsiya tayyorlash;
- modulning bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma‘ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo‘naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

### **5. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

#### **5.1. Asosiy adabiyotlar:**

##### ***Sud tibbiyoti:***

1. Indiaminov S.I. Sud tibbiyoti vrach faoliyatining xukukiy asoslari. Darslik T.2020 y.
2. G‘iyosov Z.A.. Sud tibbiyoti. Darslik. Toshkent. GLOBAL-BOOKS, 2018 y. (lotin tilida).
3. Pigolkin Yu.I. Sudebnaya medisina. Uchebnik. “GEOTAR-Media”. 2018 g
4. Iskandarov A.I., Qo‘ldoshev D.R. Sud tibbiyoti. Darslik. Toshkent. “MERIYUS” XMNK. 2009 y. (lotin va kiril tillarida).
5. Romodanovskiy P.O. Sudebnaya medisina uchebnoye posobiye M. 2018 g.
6. Indiaminov S.I. Kurs leksiy po sudebnoy medisine. uchebnoy posobiye. 2014

##### ***5.2. Qo‘shimcha adabiyotlar:***

##### ***Sud tibbiyoti:***

1. Popov V.L. i dr. Sudebnaya medisina. Uchebnik. Sankt-Peterburg “Yuridicheskiy syentr” 2016 g.
3. Indiaminov S.I. “Kurs leksiy po sudebnoy medisine”, Samarkand. “Optima print” 2014 y.

4. Indiaminov S.I. “Sud tibbiyoti”. O‘quv qo‘llanma. Samarkand.“Optima print”, 2012 y.

**Kafedrada chop etilgan adabiyotlar**

**1. Ochilov K.R Sud tibbiyoti. Dasrlik “Durdona” 2021y.**

**5.3.Internet saytlari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
4. [www.tma.uz](http://www.tma.uz)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)